

O‘ZBEKISTON VA YUNESKO: ILM-FAN, TA’LIM, MADANIYAT VA TARIXIY MEROSNI SAQLASHDAGI HAMKORLIK

Xoliqov G‘olib Jahongirovich

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti dotsenti,

Safarov Maqsud

Qarshi davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston va YuNESKO o‘rtasidagi hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Xususan, ta’lim, fan, madaniyat va tarixiy merosni muhofaza qilish sohalaridagi qo‘shma loyihalar, bu sohalarda erishilgan yutuqlar va istiqboldagi rejalar yoritiladi. O‘zbekistonning boy madaniy va tarixiy merosini saqlash, ta’lim sifatini oshirish hamda ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlashda YuNESKO bilan hamkorlikning ahamiyati keng muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: BMT, YUNESKO, O‘zbekiston, ta’lim, fan, madaniyat, madaniy meros, xalqaro hamkorlik, Butunjahon merosi, madaniy yodgorliklar, ta’lim sifatini oshirish, ilmiy tadqiqotlar.

Abstract: This article analyzes the main directions of cooperation between Uzbekistan and UNESCO. In particular, joint projects in the fields of education, science, culture and historical heritage protection, achievements in these fields and future plans will be highlighted. The importance of cooperation with UNESCO in preserving the rich cultural and historical heritage of Uzbekistan, improving the quality of education and supporting scientific research is widely discussed.

Key words: UN, UNESCO, Uzbekistan, education, science, culture, cultural heritage, international cooperation, World Heritage, cultural monuments, improving the quality of education, scientific research.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng xalqaro tashkilotlar, jumladan, YUNESKO bilan hamkorlikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratdi. YUNESKO – BMTning ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha ixtisoslashgan tashkiloti bo‘lib,

u madaniy merosni muhofaza qilish, ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli loyihalarni amalga oshiradi. O'zbekiston 1993 yilda YUNESKO a'zosi bo'ldi va shu kundan boshlab ta'lim, fan, madaniyat hamda tarixiy merosni asrab-avaylash sohalarida keng ko'lamli hamkorlikni yo'lga qo'ydi.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatida obro'-e'tibori, nufuzining tobora oshib borishi istiqlool tufaylidir¹. Tarixdan ma'lumki, hech qaysi davlat o'z qobig'iga o'ralib, jahon hamjamiyatidan uzilib, mustaqil taraqqiyot yo'lidan bormagan². Aksincha, mustaqil rivojlanish yo'lini tanlashi bilanoq, jahon hamjamiyatiga qo'shilish orqali taqdirini belgilagan. Shu boisdan ham, O'zbekiston mustaqil davlat maqomiga ega bo'lishi bilanoq, xalqaro hamjamiyat bilan teng huquqli, suveren hamkorlik qilish yo'lini tutdi³.

Bugungi kunda O'zbekiston jahon hamjamiyatida o'z o'rni va nufuziga ega bo'lgan davlatga aylandi. Bu borada Respublika Prezidenti ta'kidlaganidek: "Mustaqillikka erishganimizdan beri o'tgan qisqa tarixiy davr ichida mamlakatimiz dunyo hamjamiyatida munosib o'rin egalladi"⁴.

O'zbekiston jahonning juda ko'plab yirik xalqaro tashkilotlari, ilmiy va madaniy muassasalarining teng huquqli a'zosidir. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), NATOning "Tinchlik yo'lidagi hamkorlik dasturi", Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti, YUNESKO, Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti, Xalqaro Valyuta Fondi, Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlar shular jumlasidandir.

O'zbekiston 1993 yil 29 oktabrda YUNESKOning a'zosi bo'ldi. Shu davrdan boshlab YUNESKO O'zbekistonga juda katta e'tibor qaratib kelmoqda, chunki mamlakat juda boy madaniy merosga ega⁵. Binobarin, YUNESKOning sobiq Bosh direktori Federiko Mayor fikricha, "O'zbekiston YUNESKO uchun katta kashfiyot bo'ldi"⁵.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти нутқлари ва маърузалари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2023.

² ЮНЕСКО расмий веб-сайти: <https://www.unesco.org>

³ А. Раҳимов. ЮНЕСКО ва Ўзбекистон: маданий меросни сақлаш ва ривожлантириш. – Тошкент: Мерос нашриёти, 2021.

⁴ ЮНЕСКОнинг Бутунжаҳон мероси рўйхати тўғрисидаги ҳужжатлар. – Париж: ЮНЕСКО нашриёти, 2022.

⁵ Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлиги. ЮНЕСКО билан ҳамкорлик бўйича расмий ҳисоботлар (2019–2023).

O'zbekiston va YUNESKO hamkorligi doirasida tarixiy, madaniy merosni tiklash va o'rganish, ta'lim, fan masalalari bo'yicha yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Ahmad al-Farg'oniy, Imom al-Buxoriy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek kabi tarixiy shaxslarning yubileylari hamda Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi shaharlarning tarixiy ahamiyatiga bag'ishlangan tadbirlar YUNESKO homiyligida o'tkazilgan.

Shuningdek, qadimiy shaharlar va me'moriy yodgorliklar – "Ichan Qala" majmuasi, Buxoro va Shahrisabz tarixiy markazlari, "Samarqand – madaniyatlar chorrahasi" YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.

YUNESKO ta'lim sohasida ham O'zbekiston bilan keng hamkorlik olib bormoqda. Jumladan, oliy ta'lim tizimini isloh qilish, talabalar va olimlar akademik almashinuvini tashkil etish, milliy ta'lim loyihalarini qo'llab-quvvatlash kabi ishlar amalga oshirilmoqda.

YUNESKOning nomoddiy merosni himoya qilish bo'yicha Konvensiyasiga muvofiq, Boysun tumanidagi tarixiy joylar va o'zbek shashmaqomi insoniyatning nomoddiy madaniy merosi durdonalari deb e'lon qilingan.

2010 yilda Xivada o'tkazilgan "Asrlar sadosi" an'anaviy madaniyat festivali YUNESKO va O'zbekiston hamkorligining yorqin namunasidir. Yuksak umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilish va ilmiy-tarixiy merosni himoya qilishdagi xizmatlari uchun O'zbekiston rahbari YUNESKOning ikki oliy nishoni – Abu Ali ibn Sino nomidagi hamda "Borobudur" oltin medallari bilan taqdirlangan.

Xulosa

Markaziy Osiyo mamlakatlarining BMT va uning ixtisoslashgan tashkilotlari bilan o'zaro samarali hamkorligi mintaqada ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga, shuningdek, xalqaro hamjamiyatda munosib o'rin egallashga xizmat qiladi. Zero, "o'tmishsiz kelajak, hamkorliksiz taraqqiyot bo'lmaydi".

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти нутқлари ва маърузалари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2023.
2. ЮНЕСКО расмий веб-сайти: <https://www.unesco.org>
3. Алимов С. Ўзбекистон ва халқаро ташкилотлар: ҳамкорлик истиқболлари. – Тошкент: Фан, 2019.
4. Раҳимов А. ЮНЕСКО ва Ўзбекистон: маданий меросни сақлаш ва ривожлантириш. – Тошкент: Мерос нашриёти, 2021.
5. ЮНЕСКОнинг Бутунжаҳон мероси рўйхати тўғрисидаги ҳужжатлар. – Париж: ЮНЕСКО нашриёти, 2022.
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги ЮНЕСКО ишлари бўйича Миллий комиссиянинг расмий ҳисоботлари (2020–2023 йиллар).
7. Жўраев Х. Ўзбекистоннинг маданий мероси: ЮНЕСКО билан ҳамкорлик тажрибаси. – Тошкент: Sharq, 2020.
8. Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлиги. ЮНЕСКО билан ҳамкорлик бўйича расмий ҳисоботлар (2019–2023).
9. Nomozov, Xurshid. "INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN FOYDALANISH SOHALARI." *Development and innovations in science* 2.7 (2023): 8-14.
10. Nomozov, Xurshid. "INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI." *Farg'ona davlat universiteti*, (3) (2023): 67-67.
11. Номозов, Х. "ИНТЕРНЕТ-МАКОН ТАЪСИРИДА СОДИР БЎЛАЁТГАН НЕГАТИВ ИЖТИМОЙЛАШУВ ШАКЛЛАРИ." *Философия и право* 26.3 (2023): 232-235.
12. Nomozov, Xurshid. "OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING IJTIMOIIY FUNKSIYASI." *TAMADDUN NURI JURNALI* 1.64 (2025): 253-255.
13. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI." *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR* 1.2 (2024): 48-51.

- 14.Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "JAMIYAT IJTIMOIYLASHUVIDA INSTITUTLARI O'RNI VA INTERNET-MAKONNING UNDAGI O'RNI." *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION* 1.2 (2024): 83-88.
- 15.Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "JAMIYATDA INTERNET-MAKON KONTENTLARI TA'SIRIDA SODIR BO'LAYOTGAN NEGATIV IJTIMOIYLASHUV SHAKLLARI." *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR* 1.2 (2024): 52-58.
- 16.Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "JAMIYATDA INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN FOYDALANISH SOHALARI." *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS* 1.2 (2024): 113-118.
- 17.Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "JAMIYATDA INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN FOYDALANISH SOHALARI." *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS* 1.2 (2024): 113-118.
- 18.Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "AXBOROT XURUJINING O'SMIRLAR HAYOTIGA TA'SIRI." *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* (2023): 1285-1287.
- 19.O'G'Li, Nomozov Xurshid Shavkat. "YUKSAK AXBOROT MADANIYATI–INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN RATSIONAL FOYDALANISH SHARTI." *Research Focus* 2.6 (2023): 105-110.
- 20.Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "THREATS TO INFORMATION SECURITY IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS." *Gospodarka i Innowacje*. 22 (2022): 229-231.